



## **URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI TABIIY FANLAR FAKULTETI KIMYO KAFEDRASI**

**60530100-Kimyo ta’lim yo’nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy  
faoliyatining tavsifi**

### **Bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohasi:**

60530100-Kimyo-tabiyy va fundamental fanlar sohasidagi yo’nalish bo’lib, kimyo bilimlari majmuidir. Ushbu yo’nalishda ta’lim olganlar umumiy o’rta, o’rta maxsus, kasb – hunar ta’limi muassasalarida mutaxasislikka oid fanlarni o’qitish, oliy, malaka oshirish va qayta taylorlash muassasalarda o’rnatilgan tartibda yordamchi xodimlar, O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida, ilmiy ishlab-chiqarish birlashmalarida, ishlab chiqarish korxonalarida, tashkiliy boshqaruv va boshqa sohalarda kimyoga oid kompleks masalalarni yechish bo'yicha faoliyat olib boradilar. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining meyoriy muddati 4 yil.

### **Bakalavrlar kasbiy faoliyati quyidagilarni qamrab oladi:**

-Umumiy o’rta, o’rta maxsus, kasb-hunar, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta’limi muassasalarida o’rnatilgan tartibda kimyoga oid fanlarni o’qitish, amaliy darslarni olib borish, zamonaviy pedagogik va axborot texnalogiyalarini hamda tadbiq etishni;

-Dunyoqarash tavsifidagi bilimlar tizimini egallagan bo’lishi, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asosini, davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi;

-Ijtimoiy muommolar va jarayonlarni mustaqil tashkil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

-Vatan tarixini bilishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar bo'yicha o'z nuqtai nazarini bayon etishi hamda ilmiy asoslay olishi, milliy g'oya asosida faol hayotiy o'rinni egallashi;

-Tabiat va jamiyatda yuz berayotgan jarayonlar va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqida bilimlarga ega bo'lishi, uladan hayotda va kasbiy faoliyatda zamonaviy-ilmiy asoslarda foydalana olishi;

-Insonlar orasidagi jamiyatda, atrof-muhitga bo'lган munosabatini tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy me'yorlarni kasbiy faoliyatda hisobga olabilishi;

-Kimyo faniga oid axborotlarni to'plash, tashkil qilish va ulardan foydalanish usullarini egallash, o'zining kasbiy faoliyatida asosiy mustaqil fikrlash va kerakli qarorlar qabul qila olishi;

-Bakalavriatning kimyo yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;

-Kimyo sohasiga oid yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtira olishi, o'zini takomilashtirishi va o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila bilishi;

-Kompyuter texnologiyalari va sohaga oid dasturlash imkoniyatlaridan foydalangan holda ish yuritish;

-Tajriba-sinov laboratoriylarida, korxonalarda va muassasalarda standart usullar bo'yicha kimyoviy tajribalar o'tkazish;

### **Ta'limni davom ettirish imkoniyatlari:**

60530100-Kimyo ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr kasbiy tayyorgarlikdan keyin quyidagi:

70530101-Kimyo (fan yo'nalishi bo'yicha) magistratura mutaxassisliklari bo'yicha ikki yildan kam bo'lмаган muddatdan o'qishni davom ettirishi mumkin.